JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH
Volume 4, Issue 6, July- August 2026 Online ISSN: 3030-3508
https://spaceknowladge.com

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIZMLARNING METAFORIK VA OBRAZLILIK XUSUSIYATLARI

Ilmiy rahbar: **Meliyeva Gulnoza Minggirovna**
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti o‘qituvchisi
Maxmudova Zilolaxon Mansurbek qizi
Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti
Magistratura 1-kurs talabasi
Email: makhmudovazilolakhan@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0002-9787-200X

MAQOLA MALUMOTI

MAQOLA TARIXI:

Received:24.07.2026
Revised: 25.07.2026
Accepted:26.07.2026

KALIT SO’ZLAR:

frazeologizm, metafora, obrazlilik, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, konseptual metafora, semantika, frazeologik birlik, ingliz tili, o‘zbek tili.

ANNOTATSIYA:

Mazkur maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning metaforik va obrazlilik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tadqiq etilgan. Maqolaning maqsadi ikki tildagi frazeologizmlarning metaforik asoslarini, obrazlilik xususiyatlarini hamda ularning lingvokulturologik jihatlarini aniqlashdan iborat. Maqola jarayonida qiyosiy-tahliliy, deskriptiv, semantik, lingvokulturologik va konseptual metafora tahlili metodlaridan foydalanildi. Frazeologik birliklar tabiat obrazlari, inson tana a’zolari, kundalik turmush, hissiy holat hamda ijtimoiy munosabat va xulq-atvorni ifodalovchi obrazlar asosida tasniflanib, ularning o‘xshash va farqli jihatlari tahlil qilindi. Maqola natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning metaforik tabiati umumiy konseptual asosga ega ekanligini, biroq ularning obrazlilik xususiyatlari har bir xalqning milliy-madaniy tajribasi, dunyoqarashi va qadriyatlari ta’sirida shakllanishini ko‘rsatdi. Olingan natijalar frazeologiya, lingvokulturologiya va tarjimashunoslik yo‘nalishlaridagi qiyosiy maqolalarni rivojlantirish hamda frazeologik

birliklarni o‘qitish va tarjima qilish amaliyotida muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

KIRISH

Hozirgi kunda globallashuv jarayonlarining jadallashuvi hamda tillararo va madaniyatlararo muloqot ko‘lamining kengayishi turli tillardagi frazeologik birliklarni qiyosiy jihatdan o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni yanada oshirmoqda. Ayniqsa, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning metaforik hamda obrazlilik xususiyatlarini tadqiq etish tilning semantik tizimini chuqurroq anglash, shuningdek, xalqning milliy tafakkuri, madaniy qadriyatlari va dunyoqarashining tilda namoyon bo‘lish mexanizmlarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Frazeologik birliklar tarkiban bir necha mustaqil so‘zlardan tashkil topgan bo‘lsa-da, yaxlit semantik ma’noni ifodalovchi, tilda tayyor holda qo‘llaniladigan hamda barqarorligi bilan ajralib turadigan til birliklari hisoblanadi [6]. Ular nutqning obrazliligini, ekspressivligini va ta’sirchanligini oshirish bilan bir qatorda, xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari, turmush tarzi va madaniy tafakkurini ham o‘zida aks ettiradi [6]. Shu sababli frazeologik birliklarning metaforik va obrazlilik xususiyatlarini qiyosiy jihatdan o‘rganish zamonaviy tilshunoslikning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Frazeologik birliklarning muhim belgilaridan biri ularning obrazli va ko‘chma ma’noga asoslangan semantik tuzilishga egaligidir. A.V. Kuninning ta’kidlashicha, frazeologik birliklarda obrazli qayta ma’nolanish (образное переосмысление) frazeologik ma’noning shakllanishidagi asosiy semantik jarayonlardan biri hisoblanadi [6]. Natijada frazeologik birlik tarkibidagi komponentlar o‘zining bevosita lug‘aviy ma’nosidan uzoqlashib, yaxlit va ko‘chma ma’noni ifodalaydi [6]. Mazkur semantik jarayon frazeologik birliklarning obrazlilik xususiyatini shakllantiradi hamda ularning nutqdagi ta’sirchanligi va ekspressivligini kuchaytiradi. Shu bois frazeologik birliklarning metaforik va obrazlilik xususiyatlarini tadqiq etish ularning semantik tabiati, ma’no shakllanishi va funksional imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolaning nazariy-metodologik asosini V.V. Vinogradovning frazeologik birliklarning semantik yaxlitligi va tasnifiga oid ilmiy qarashlari [5], A.V. Kuninning frazeologik birliklarning semantik tabiati hamda obrazli qayta ma’nolanishiga doir yondashuvlari [6], G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi [3], Sh. Rahmatullayevning o‘zbek frazeologiyasiga oid ilmiy ishlari [4] hamda Kuganova A.A. va Asiljonova Sh.D.ning frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlariga bag‘ishlangan maqolalari tashkil etdi [2].

Maqola materiali sifatida metaforik va obrazlilik xususiyatlari yaqqol namoyon bo‘ladigan ingliz va o‘zbek tillariga mansub jami 10 ta frazeologik birlik 5 ta ingliz va 5 ta o‘zbek tanlab olindi. Ingliz tilidagi frazeologik birliklarning ma’nolari va qo‘llanilish xususiyatlarini aniqlashda *Cambridge International Dictionary of Idioms* [1], o‘zbek tilidagi

frazeologik birliklarni izohlashda esa Sh. Rahmatullayevning *"O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati"* asosiy manba sifatida foydalanildi [4].

Maqolada qiyosiy, tavsifiy, semantik va lingvokulturologik tahlil metodlari qo‘llanildi. Dastlab tanlangan frazeologik birliklarning lug‘aviy va frazeologik ma’nolari aniqlandi. Keyingi bosqichda ularning metaforik asoslari, obrazlilik xususiyatlari, semantik tuzilishi hamda lingvokulturologik jihatlari tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning umumiy hamda o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida baholandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Maqola natijasida ingliz va o‘zbek tillaridagi tanlab olingan frazeologik birliklarning metaforik hamda obrazlilik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil davomida ushbu frazeologik birliklar metaforik obraz manbalariga ko‘ra besh semantik guruhga tasniflandi. Mazkur tasnif ularning semantik tuzilishi, metaforik asoslari, obrazlilik xususiyatlari va lingvokulturologik jihatlarini izchil tahlil qilish imkonini berdi. Olingan natijalar har ikki tilda ham metafora frazeologik ma’noni shakllantirishning asosiy vositalaridan biri ekanligini, obrazlilik esa ushbu ma’noni ta’sirchan va ifodali tarzda yetkazishda muhim vazifa bajarishini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarda umumiy konseptual o‘xshashliklar kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning obraz manbalari hamda milliy-madaniy xususiyatlarida muayyan farqlar mavjudligi aniqlandi. Ushbu natijalar quyidagi jadval va keyingi qiyosiy tahlillar orqali yoritiladi.

1-jadval. Maqolada tahlil qilingan ingliz va o‘zbek tilidagi frazeologik birliklarning metaforik obraz manbalariga ko‘ra tasnifi

Guruh	Ingliz	O‘zbek
1. Tabiat obrazlari	*once in a blue moon*	*qovog‘idan qor yog‘moq*
2. Inson tana a’zolari	*turn a blind eye*	*yuragi tosh*
3. Hissiy holat	*on cloud nine*	*do‘ppisi osmonga otilmoq*
4. Kundalik turmush	*throw in the towel*	*bel bog‘lamoq*
5. Ijtimoiy munosabat	*pull someone’s leg*	*bir yoqadan bosh chiqarmoq*

1-jadvalda maqola uchun tanlab olingan frazeologik birliklarning metaforik obraz manbalariga ko‘ra tasnifi keltirilgan. Mazkur tasnif frazeologik birliklarni metaforik obraz manbalari asosida tizimlashtirish hamda ularning metaforik va obrazlilik xususiyatlarini ingliz va o‘zbek tillari misolida qiyosiy tahlil qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tabiat obrazlariga asoslangan frazeologik birliklar. Ingliz tilidagi *once in a blue moon* va o‘zbek tilidagi *qovog‘idan qor yog‘moq* frazeologik birliklari tabiat obrazlari asosida shakllangan bo‘lsa-da, ularning metaforik va obrazlilik xususiyatlari o‘ziga xosdir.

*Metaforik xususiyati***.** Ingliz tilidagi *once in a blue moon* iborasida *blue moon* tabiatda juda kam uchraydigan hodisa sifatida voqeaning nihoyatda kam sodir bo‘lishini metaforik ifodalaydi [1]. O‘zbek tilidagi *qovog‘idan qor yog‘moq* frazeologizmida esa *qor* obrazi insonning sovuq, jahldor va badqovoq kayfiyatini ifodalovchi metafora vazifasini bajaradi [4].

Obrazlilik xususiyati. Har ikkala frazeologik birlik tinglovchi yoki o‘quvchi tasavvurida yorqin obraz hosil qiladi. *Once in a blue moon* iborasi kam uchraydigan osmon hodisasini ko‘z oldiga keltirib, voqeaning noyobligini ta’sirchan ifodalaydi [1]. *Qovog‘idan qor yog‘moq* esa qovog‘idan go‘yo qor yog‘ayotgan inson manzarasini gavdalantirib, uning salbiy kayfiyati va jahldorligini kuchli obraz orqali tasvirlaydi [4]. Shu sababli mazkur frazeologik birliklar nafaqat ma’no, balki badiiy ta’sirchanlikni ham kuchaytiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, metafora ikkala tilda ham tabiat obrazlari orqali yuzaga kelgan bo‘lsa, obrazlilik ushbu metaforalarning o‘quvchi tasavvurida jonli va aniq manzara hosil qilishi orqali namoyon bo‘ladi. Biroq ingliz tilida obraz voqeaning kam uchrashini aks ettirsa, o‘zbek tilida insonning ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi [3] [2].

Inson tana a’zolari bilan bog‘liq obrazlarga asoslangan frazeologik birliklar. Ingliz tilidagi *turn a blind eye* va o‘zbek tilidagi *yuragi tosh* frazeologik birliklari inson tana a’zolari asosida shakllangan bo‘lib, ularning metaforik va obrazlilik xususiyatlari o‘ziga xosdir.

Metaforik xususiyati. Ingliz tilidagi *turn a blind eye* iborasi voqea yoki holatni bila turib e’tiborsiz qoldirish ma’nosini anglatadi. Bu yerda *blind eye* obrazi jismoniy ko‘rlikni emas, balki ataylab ko‘rmaslikni ifodalovchi metafora sifatida qo‘llanadi [1]. O‘zbek tilidagi *yuragi tosh* frazeologizmida esa *tosh* obrazi insonning rahmsizligi, shafqatsizligi va mehr-oqibatning yo‘qligini ifodalovchi metaforik vosita hisoblanadi [4].

Obrazlilik xususiyati. Har ikkala frazeologik birlik o‘quvchi tasavvurida yorqin obraz hosil qiladi. *Turn a blind eye* iborasi ko‘zi bor bo‘lsa-da, ataylab ko‘rmayotgan inson manzarasini gavdalantirib, befarqlikni ta’sirchan ifodalaydi [1]. *Yuragi tosh* frazeologizmi esa yuragi go‘yo toshdan yaratilgan inson obrazini yaratib, uning rahmsiz va hissiz xarakterini yorqin tasvirlaydi. Shu orqali obrazlilik frazeologik birliklarning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiradi [4].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala frazeologik birlik inson tana a’zolari orqali metaforik ma’no hosil qilgan. Biroq ingliz tilida *ko‘z* obrazi ongli ravishda e’tiborsizlikni ifodalasa, o‘zbek tilida *yurak* obrazi insonning ichki ma’naviy fazilatlari va hissiy holatini tavsiflashga xizmat qiladi. Bu esa ingliz va o‘zbek tillarida tana a’zolari bilan bog‘liq metaforalar milliy tafakkur va madaniy qarashlarni o‘zida aks ettirishini ko‘rsatadi [3] [2].

Hissiy holatini ifodalovchi metaforik birliklar. Ingliz tilidagi *on cloud nine* va o‘zbek tilidagi *do‘ppisi osmonga otilmoq* frazeologik birliklari insonning quvonch va xursandchilik holatini ifodalovchi metaforik birliklar hisoblanadi.

*Metaforik xususiyati***.** Ingliz tilidagi *on cloud nine* iborasida *cloud nine* obrazi insonning nihoyatda baxtli va xursand holatini metaforik tarzda ifodalaydi. Bunda balandlik va bulut

obrazi quvonchning yuqori darajasini anglatadi [1]. O‘zbek tilidagi *do‘ppisi osmonga otilmoq* frazeologizmida esa *osmonga otilmoq* obrazi insonning cheksiz quvonchi va mamnunligini ifodalovchi metafora vazifasini bajaradi [4].

Obrazlilik xususiyati. Har ikkala frazeologik birlik o‘quvchi tasavvurida kuchli obraz hosil qiladi. *On cloud nine* iborasi insonni go‘yo bulutlar ustida turgandek tasvirlab, uning yuksak quvonchini jonli ifodalaydi [1]. *Do‘ppisi osmonga otilmoq* frazeologizmi esa quvonchdan insonning do‘ppisi osmonga uchib ketayotgandek obraz yaratadi. Ushbu obrazlar hissiy holatni oddiy bayon qilishdan ko‘ra ta’sirchanroq va badiiyroq ifodalashga xizmat qiladi[4].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala frazeologik birlikda ham quvonch hissi balandlik obrazi orqali metaforik ifodalangan. Biroq ingliz tilida bu holat *bulut* obrazi orqali, o‘zbek tilida esa milliy madaniyatga xos *do‘ppi* va *osmon* obrazlari orqali tasvirlanadi. Bu esa hissiy holatni ifodalovchi frazeologik birliklarning obrazlilik xususiyatlari har bir xalqning madaniy qadriyatlari va dunyoqarashi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi [3] [2].

Kundalik turmush va faoliyatga oid obrazlarga asoslangan frazeologik birliklar. Ingliz tilidagi *throw in the towel* va o‘zbek tilidagi *bel bog‘lamoq* frazeologik birliklari kundalik turmush tajribasi asosida shakllangan bo‘lib, ularning metaforik va obrazlilik xususiyatlari o‘ziga xosdir.

Metaforik xususiyati. Ingliz tilidagi *throw in the towel* iborasi mag‘lubiyatni tan olish yoki kurashni davom ettirmaslik ma’nosini anglatadi. Mazkur birlik boks sportidagi sochiqni ringga tashlash odatidan kelib chiqqan bo‘lib, keyinchalik har qanday faoliyatda taslim bo‘lishni ifodalovchi metaforaga aylangan [1]. O‘zbek tilidagi *bel bog‘lamoq* frazeologizmi esa biror ishni qat'iy niyat bilan boshlash yoki maqsad sari astoydil kirishishni anglatadi. Bu yerda *bel bog‘lash* harakati qat'iyat va tayyorgarlikning metaforik ifodasi sifatida qo‘llanadi [4].

Obrazlilik xususiyati. Har ikkala frazeologik birlik o‘quvchi tasavvurida aniq harakat obrazini hosil qiladi. *Throw in the towel* iborasi ringga sochiq tashlayotgan sportchi yoki murabbiy manzarasini gavdalantirib, taslim bo‘lish holatini ta’sirchan ifodalaydi. *Bel bog‘lamoq* esa belini mahkam bog‘lab, ishga kirishayotgan inson obrazini yaratadi va uning qat'iyati hamda tayyorgarligini jonli tasvirlaydi. Shu tariqa obrazlilik frazeologik birliklarning badiiy ta’sirchanligini oshiradi.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala frazeologik birlik kundalik hayotdagi amaliy harakatlar asosida metaforik ma’no kasb etgan. Biroq ingliz tilida bu obraz kurashni to‘xtatish va taslim bo‘lishni anglatsa, o‘zbek tilida aksincha, qat'iyat bilan ish boshlash va maqsad sari intilishni ifodalaydi. Bu esa kundalik turmush bilan bog‘liq frazeologik birliklarning metaforik va obrazlilik xususiyatlari turli xalqlarning hayotiy tajribasi hamda madaniy qarashlari asosida shakllanishini ko‘rsatadi [3] [2].

Ijtimoiy munosabat va xulq-atvorni ifodalovchi obrazlarga asoslangan frazeologik birliklar. Ingliz tilidagi *pull someone’s leg* va o‘zbek tilidagi *bir yoqadan bosh chiqarmoq*

frazeologik birliklari ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi birliklar bo‘lib, ularning metaforik va obrazlilik xususiyatlari o‘ziga xosdir.

Metaforik xususiyati. Ingliz tilidagi *pull someone’s leg* iborasi hazillashmoq yoki birovni chalg‘itmoq ma’nosini anglatadi. Bu yerda *oyoqdan tortish* harakati bevosita emas, balki hazil orqali boshqani ishonishga undashni ifodalovchi metafora sifatida qo‘llanadi [1]. O‘zbek tilidagi *bir yoqadan bosh chiqarmoq* frazeologizmi esa hamjihatlikda harakat qilish, bir maqsad yo‘lida birlashishni anglatadi. Ushbu birlikda *bir yoqa* obrazi birlik va hamkorlikning metaforik timsoli sifatida namoyon bo‘ladi [4].

Obrazlilik xususiyati. Har ikkala frazeologik birlik o‘quvchi tasavvurida jonli obraz hosil qiladi. *Pull someone’s leg* iborasi go‘yo kimningdir oyog‘ini tortayotgan holatni gavdalantirib, hazil va yengil kinoyani obrazli ifodalaydi [1]. *Bir yoqadan bosh chiqarmoq* esa bir necha kishining bitta yoqadan bosh chiqarayotgandek tasvirini yaratib, ularning hamjihatligi va o‘zaro birdamligini yorqin aks ettiradi. Shu tariqa obrazlilik frazeologik birliklarning ta’sirchanligini oshiradi [4].

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, har ikkala frazeologik birlik ijtimoiy munosabatlarni metaforik obrazlar orqali ifodalaydi. Biroq ingliz tilida obraz hazil va norasmiy muloqotni aks ettirsa, o‘zbek tilida birlik, hamkorlik va jamoaviy harakat g‘oyasini ifodalaydi. Bu esa ijtimoiy munosabatlarga oid frazeologik birliklarning metaforik va obrazlilik xususiyatlari har bir xalqning kommunikativ madaniyati va ijtimoiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rsatadi [3] [2].

Olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarda metafora hamda obrazlilikning frazeologik ma’noni shakllantirishdagi asosiy vositalardan biri ekanligini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan frazeologik birliklarda tabiat, inson tana a’zolari, hissiy holat, kundalik turmush va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq obrazlar orqali mavhum tushunchalar aniq va ta’sirchan tarzda ifodalangan. Bu holat metaforaning faqat badiiy vosita emas, balki inson tafakkurini aks ettiruvchi muhim kognitiv mexanizm ekanligini tasdiqlaydi.

Maqola natijalari Lakoff va Johnson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasi bilan uyg‘unlashadi. Ularning fikriga ko‘ra, metafora insonning fikrlashi va dunyoni idrok etish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur maqolada ham frazeologik birliklarning ma’nosi turli konseptual obrazlar orqali shakllanishi kuzatildi. Shuningdek, Rahmatullayev hamda boshqa frazeolog olimlarning frazeologik birliklarda obrazlilik ma’no ta’sirchanligini kuchaytirishi haqidagi qarashlari tahlil natijalari bilan tasdiqlandi.

Tahlil davomida ingliz va o‘zbek tillarida metaforik modellar o‘xshash konseptual asosga ega bo‘lsa-da, ularning obrazlilik xususiyatlari milliy-madaniy omillar ta’sirida farqlanishi aniqlandi. Ingliz tilidagi ayrim frazeologik birliklarda sport, tabiat va kundalik hayot bilan bog‘liq obrazlar ustunlik qilsa, o‘zbek tilida insonning ichki kechinmalari, milliy qadriyatlar hamda ijtimoiy birdamlikni ifodalovchi obrazlar ko‘proq uchraydi. Bu esa frazeologik

birliklarning shakllanishida madaniy muhit va xalqning dunyoqarashi muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning metaforik hamda obrazlilik xususiyatlarini yagona qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilganidadir. Olingan natijalar frazeologik birliklarni lingvokulturologik va kognitiv nuqtai nazardan o‘rganish bo‘yicha keyingi maqolalar uchun muayyan ilmiy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA

Mazkur maqola davomida ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarning metaforik va obrazlilik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari har ikkala tilda ham metafora frazeologik ma’noni shakllantirishning muhim vositasi ekanligini, obrazlilik esa ushbu ma’noni yanada ta’sirchan va ifodali tarzda yetkazishga xizmat qilishini ko‘rsatdi.

Maqola jarayonida tanlab olingan frazeologik birliklarda tabiat, inson tana a’zolari, hissiy holat, kundalik turmush va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘liq obrazlar metaforik ma’no hosil qilishda faol ishtirok etishi aniqlandi. Shu bilan birga, ingliz va o‘zbek tillarida ayrim metaforik modellar o‘xshash bo‘lsa-da, obrazlarning shakllanishi va ifodalanishida milliy-madaniy xususiyatlar muhim o‘rin egallashi kuzatildi.

Maqola natijalari frazeologik birliklarni qiyosiy, lingvokulturologik va kognitiv yondashuv asosida o‘rganish ularning semantik mazmunini hamda milliy o‘ziga xosligini chuqurroq anglash imkonini berishini ko‘rsatdi. Olingan xulosalar ingliz va o‘zbek frazeologiyasini qiyosiy o‘rganish, tarjima amaliyoti hamda frazeologik birliklarning metaforik va obrazlilik xususiyatlariga oid keyingi ilmiy maqolalarda foydalanish uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cambridge International Dictionary of Idioms. - Cambridge: Cambridge University Press, 1998. - 587 p.
2. Kuganova A.A., Asiljonova Sh.D. Frazeologik birliklar va tarjima // Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). - 2022. - Vol. 2, Issue 3. - P. 72-77.
3. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: The University of Chicago Press, 1980. - 242 p.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. - Тошкент: Ўқитувчи, 1978. - 405 б.
5. Виноградов В.В. Основные типы фразеологических единиц русского языка. - Москва: Наука, 1977. - 312 с.
6. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. - Москва: Высшая школа, 1996. - 381 с.